OILAVIY ZO'RAVONLIKNI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Maxsudova Mo'tabar Abdusalomovna
Namangan davlat universiteti professori

Annotatsiya" Hozirgi jamiyatda oilani saqlab qolish va oiladagi zo'ravonliklarni oldini olish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Ushbu maqolada asosan zo'ravonlikning kelib chiqish sabablari, ularning xuquqiy asoslari, zo'ravonlikka uchragan odamlarning psixologiyasi hamda ulardagi yuzaga keladigan psixologik buzilishlar haqida bo'lib, zo'ravonlikning ijimoiy-psixologik tuzilishlarini kompleks xolda tahlil qilinib, ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Oiladagi zo'ravonlik, qadriyat, jismoniy salomatlik, psixologik salomatlik, verbal tajovvuz, jabrlanuvchi, ijtimoiy aloqa, moslashuvchanlik hissiy qobiliyat.

Аннотация: В современном обществе сохранение семьи и предотвращение домашнего насилия является актуальной проблемой. В данной статье рассматриваются причины возникновения насилия, его правовые основы, психология людей, подвергшихся насилию, а также возникающие у них психологические расстройства. Социально-психологические структуры насилия проанализированы комплексно и рассмотрены на основе научно обоснованных подходов.

Ключевые слова: Домашнее насилие, ценность, физическое здоровье, психологическое здоровье, вербальная агрессия, пострадавший, социальные связи, адаптивность, эмоциональная компетентность.

Abstract: In contemporary society, preserving the family unit and preventing domestic violence has become an increasingly pressing issue. This article primarily addresses the causes of violence, its legal foundations, the psychology of individuals who have experienced violence, and the psychological disorders that may arise in them. The socio-psychological structures of violence are examined comprehensively and analyzed through scientifically grounded approaches.

Keywords: Domestic violence, values, physical health, psychological health, verbal aggression, victim, social connections, adaptability, emotional competence.

Kirish.

Oilalardagi zo'ravonlik hozirgi jamiyatimizdagi dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Bizning qadriyatlarimizda oilaga hurmat va uning mustahkamligini ta'milash avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bir zamonda, oiladagi adolatsizliklar, kelishmovchiliklar hamda xozirgi zamonda ko'payib borayotgan ajrimlar Kundan kunga ko'paymoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak Qalampir.uz sayti tomonidan 2023-yil 11-aprelda chop etilgan "Oiladagi zo'ravonlik: Dunyoda beshinchi o'rinda bo'ldi" nomli maqolada O'zbekistondagi oilaviy zo'ravonlikni jinoyat sifatida qonunga kirigan beshinchi davlat sifatida ro'yhatga olingani haqida Amnesty International tashkiloti habar bergan. O'zbekistondagi gender tenglik va zoravonlikni oldini olish maqsadida turli xildagi qonun va loyihalar ishlab chiqilmoqda. Amnesty International xalqaro tashkilotning Markaziy Osiyodagi tadqiqotchisi Xeza Mak Gilli shunday deb yozadi: "O'zbekistonda ayollar va huquq faollari yillar davomida ayollar va bolalarni oiladagi zo'ravonlikdan yaxshiroq ximoyalash uchun kompaniya olib borishdi. O'zbekiston nihoyat Sharqiy Yevropav a

Markaziy Osiyoda Gruziya, Qirg'iziston, Moldova va Ukrainadan keyin oiladagi zo'ravonlikni alohida jinoyat sifatida qonunga kiritgan beshinchi davlatga aylanmoqda."

Shuningdek ushbu maqolada Tanzila Norboyeva bolalar va ayollarga qilingan zo'ravonlik holatlari 2020-2021 yilga kelib 72mingdan ziyod ekani va 61mingdan ko'pi qariyb 85%i oiladagi zo'ravonlikka to'g'ri kelishini aytib o'tgan.

Adabiyotlar tahlili.

Oiladagi zo'ravonlik turlarining ham hammasi bir qarashda zo'ravonlikdek tuyulmasligi ham mumkin. Buninguchun eng avvalo oilaviy zo'ravonlikning belgilarini aniqlashtirib olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Oilada zo'ravonlikning turlicha shakllari bo'lishi mumkin. Ular esa asosan munosabat turlariga qarab farqlanadi. Ularga esa quyidagilar misol bo'la oladi:

Oilaviy zo'ravonlikning eng ko'p tarqalgan turlaridan biri jismoniy zo'ravonlikdir. Ushbu jisoniy tajovvuzga misol qilib, shapaloq urish, tarsaki tushirish kabilarni keltirishimiz mumkin. ushbu turi ko'rinishidan oddiydek ko'rinsada ammo keng tarqalgan va jiddiy turi hisoblanadi.

Zo'ravonlikka uchragan odamning sherigining kayfiyati va holatini oldindan aytib bo'lmaydi va ularning qarorlari va kayfiyati tez va keskin o'zgaradi. Bunday jarayonda ular jabirlanuvchilarga og'zaki tahdid qiladilar, haqoratlaydilar va sokinishlari hattoki jabirlanuvchilarning o'ziga yoki ularning yaqinlariga zarar yetkazish bilan tahdid qiladilar.

Zo'ravon shaxs jabrlanuvchining his-tuyg'ularini mensimasligi va asossiz rashq qilishlari, shubha va gumon qilish holatlarining kuzatilishi.

Oiladagi zo'ravonlikning yana bir belgisi sherigining vaqtini nazorat qilisgga urinishdir. Misol uchun do'stlar bilan ko'rishish, ishga o'qishga borish vaqtlarini cheklab qo'yish yokida umumman taqiqlash.

Zo'ravon shaxs jabrlanuvchini izolyatsiya qilishi. Ya'ni uni telefon ishlatishdan cheklash yokida turli arzimagan sabab bilan uyda qolishga majbulash. Shuningdek, ularning ustidan moliyaviy nazoratning o'rnatilishi, ya'ni pul masalasini o'zi nazorat qilishi va jabrlanuvchini pul masalalaridan uzib qo'yish yokida ularning pullarini olib qo'yish.

Ushbu keltirilgan belgilar oilada zo'ravonlikning borligidan dalolat beradi. Zo'ravonlik tajovvuzning uzoq muddatli bo'lishi nafaqat jismoniy, balki psixologik salomatlikka ham katta zarar keltiradi. Oiladagi uzq va qisqa muddatli zo'ravonlikning ta'siri natijasidagi muammolar quyidagi jiddiy sog'liq muammolariga olib kelishi mumkin. oilaviy zo'ravonlik natijasida vujudga keluvchi jismoniy ta'sirlari quyidagi belgilar orqali namoyon bo'ladi:

- yurak- qon tomir tizimi bilan bog'liq muammolar;
- oshqozon ichak- hazm qilish bilam bog'liq muammolar;
- surunkali og'riqlar;
- jinsiy- reproduktiv salomatlik bilan bog'liq muammolar;
- o'pka va tayanch harakat tizimi kasalliklariga oid belgilar;
- travmatik miyya shikastlanishi bilan bog'liq belgilar.

Shuningdek, oilaviy zo'ravonlikning bee'tibor qoldirilishi o'limga ham olib kelishi mumkin.



“Zamonaviy psixologiyada zo‘ravonlik muammosini L.S.Alekseeva, I.A.Bayeva, Ye.V.Burminstrova, Ye.F.Bikovskaya, Ye.V.Grebenkin, N.O.Zinoveva, Ye.B. Laktionova, N.F. Mixaylova, D. Pstrog kabi tadqiqotchilar rivojlantirmoqdalar”.

Natija va nazariya.

“Oila turlari va nizolar sabablari: Oilada psixologik iqlimni saqlash eng muhim vazifa hisoblanadi. Asosiy muammolar va nizolar odatda quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- Xarakterlarning mos kelmasligi;
- Muloqot yetishmovchiligi yoki uni noto'g'ri qurish;
- Qaynona-qaynotalar va qarindoshlarning munosabatlarga ta'siri”.(7.)

Oiladagi zo’ravonlikning hozirgi kundagi eng keng tarqalgan turlaridan biri emotsinal zo’ravonlik hisoblanadi. Oilaviy zo’ravonlik turlari ichidan aniqlash eng qiyini hisoblanadi. Chunki jabrlanuvchilar o’zlarining qulayligi va hissiy barqarorligini zo’ravon sheriklarining sevgisievaziga qurbon qiladilar. Ba’zi odamlar butun umrlari davomida emotsional jihatdan zo’ravonlikka uchrab kelishayotganini bilmasdan o’tadilar. Quyida esa munosabatladagi hissiy va emotsional tajovvuz qanday bo’lishi haqida 10ta fakt keltirilgan:

Yaqin insonlaridan ajratish. Odatda zo’ravon sheriklar jabrlanuvchilarning barcha vaqtlarini ularga sarflashlarini hohlaydilar va ular e’tiborni talab qiladilar agar o’zlari hohlagan e’tiborni olmasalar g’azablanadilar. Jabrlanuvchining oila a’zolari va dostlaridan uzib qo’ygan holda ularni nazorat qilmoqchi bo’lishadi;

Verbal tajovvuz. Ba’zan ular og’zaki muloqotda turli qopol so’zlar bilan haqoratlash, noxush xazillar xatto so’kinishlar bilan ranjitadilar. Ularni so’zlariga javob qaytarilsa ham qaytarilmasa ham ular o’zlarining so’zlari orqali sheriklarini bosim ostida ushlab turishadi;

Zo’ravon sherik doim ayblovchi insonni topadi. Bunday vaziyatda har qanday xató yokida muvaffaqiyatsizlik uchun boshqalarni ayniqsa o’zlarining sheriklarini ayblashlari ham mumkin;

Ular hissiy javobgarlikdan qochish uchun qaramlikdan foydalanadilar. Ba’zan bunday shaxslar xatolarini tan olishni xohlamaganlarida spirtli ichimliklar va giyohvantlik vositalariga ruju qo’yadilar;

Oilaviy zo’ravonlikda sherigini qo’rquv orqali nazorat qilish. Ba’zi hollarda ular sheriklariga jismoniy jihattan Zarar yetkazish tahtidini qiladilar va shundayqilish xavfi mavjuddek o’zlarini tutadilar. Bunday hatti-xarakatlar har qanday odamda qo’rquv uyg’otadi va xavotirni oshiradi;

Jismoniy cheklovlar qo’ish. Bunday sharoitda zo’ravon shaxs urmasa ham jismoniy jihatdan kuch ishlatgan xolda o’z sherigini nazoratda ushlab turishi mumkin. Misol uchun: bilagidan qattiq ushlab yurish, yokida qo’lini bo’yniga yokida yelkasiga qo’yib dominantligini bildirib turish kabilar;

Mehrdan mahrum qilish. Agar ularga vaqt ajratilmasa va ular so’ragan narsa vaqtida bajarlmasa ular o’zlarini sovuqqon tutishadi va kechirim so’rashlarini kutadilar;

Xizmatkor kabi ko’rish. Zo‘ravon shaxs huquqiy ustunlik hissini rivojlantiradi va o’zining sherigini xizmatkor sifatida qabul qiladi. Natijada, ular doimiy e’tibor, g‘amxo‘rlik, yordam va nazoratni talab qiladi, go‘yo ular qirollik qatori muomala qilinishi kerakdek harakatlar qilishadi;

Haddan tashqari rashkchi bo'lish va egalik qilishga urunish. Bunday sharoitda shaxs hech qachon sheriklarini shaxs sifatida ko'rmaydilar va ularni ustidan hukm qilishga intilishadi.

Ushbu sanalgan jihatlar odatda yetuk bo'lmagan, jiddiy va uzoq muddatli va baxtli munosabatlarga tayyor bo'lmagan shaxslarga xos hisoblanadi. bunday odamlarning hatti harakatlari tashqi tomondan zo'ravonlikdek ko'rinmasada ammo ularning xatti-xarakatlari jabrlanuvchilarning psixologik sog'ligiga jiddiy zarar yetkazadi.

Oiladagi zo'ravonlik nafaqat er xotin balki o'sha oiladagi bolalarga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bunday sharoitlarda ularni himoya qilish va ularning sog'liqlari uchun muhit va sharoit yaratish mukin hisoblanadi. oiladagi zo'ravonlik natijasida jabrlanuvchi bo'lgan kattalar va bolalar oila va do'stlaridan ajralib qolishi, o'zlari va bolalarni parvarishlash qobiliyatlariga shubxa qilishlari, yaxshiroq kelajak uchun umidlarini yoqotishlari mumkin. Oilaviy zo'ravonlikning ta'sirini kamaytirish hamda jabrlanuvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ularni farovonligini ta'minlashga qaatilgan muhitni yaratishda quyidagi beshta omil muhim hisoblanadi:

Havfsiz va barqaror muhit. Jabrlanuvchilarni xavfsizligi va barqaror muhitda yashashi uchun sharoitni ta'minlash;

Ijtimoiy aloqalar. Oila, dostlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlovchi markazlar bilan mustahkam ijtimoiy aloqa o'rnatish;

Moslashuvchanlik va o'sishga intilish. Qiyinchiliklarga bardosh bera olish qobiliyati hamda o'zini rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish;

Bolalar bilan mehribon ota-ona munosabati. Otaona va bola o'rtasidagi qo'llab quvvatlovchi mehribon muloqot;

Ijtimoiy va hissiy qobiliyatlar. Hissiyotlarini boshqara olish va ijtimoiy muhitda o'zini ko'rsata olishdir.

O`smirlar orasida uchraydigan suitsidal xolatlarga eng ko`p quyidagilar sababchi bo`lishi mumkun:

- jinsiy zo`ravonlik;
- ruxiy inqiroz;

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, oiladagi zo'ravonlikni oldini olishda eng avvalo kelib chiqish sabablari hamda ularni qanday aniqlashni bilish lozim. So'ngra ularga qarshi qanday chora ko'rish hamda zo'ravonlikka uchragan insonlarni qanday qilib davolash choralarini ko'rish maqsadga muvofiqdir. Zo'ravonlikni ko'rinishlari ko'p bo'lib ularni kelib chiqish omillarini aniqlashda dunyo statistik ma'lumotlaridan foydalanish ma'lumotlarning yanda aniq bo'lishi va ularni bartaraf etish yanada osonlashadi. Oiladagi zo'ravonlik joy, muhit, millat va sharoit tanlamaydi. Zo'ravonlikka uchragan ayollar va bolalarni sog'liqlarini tiklashda tashkilotlar va atrofdagilarning hissasi katta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. When Home Isn't Safe: The Mental Health Impact of Domestic Violence Article November 17 2025https://deconstructingstigma.org/guides/domestic-violence

2. Ten Signs of Emotional Abuse Out of all the forms of domestic violence. https://freeva.org.uk/ten-signs-of-emotional-abuse/

3. Article OVERVIEW OF PROTECTIVE FACTORS FOR ADULT AND CHILD SURVIVORS OF DOMESTIC VIOLENCE 2023 https://promising.futureswithoutviolence.org/wpcontent/uploads/2025/03/Overview-of-Protective-Factors-for-Adult-and-Child-Survivors-of-DV-TIP-SHEET-2025.pdf

4. https://www.qalampir.uz/uz/news/-2375-80686

5. Maxsudova M.A. Oila psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Namangan. "SUNRISE-PRO" nashriyoti. 2025.

6. Oribboyeva D.D., Roziqova M.O., Jo`rayev S.M. Oila psixologiyasi. Darslik. Namangan. 2025

7. Abduraxmanova Z.E. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. O`quv qo`llanma. "Universitet". T.2023